



# KO'RSATILGAN ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHGA OID XIZMATLAR TENDENSIYASI

## Qisqa tavsif

2026-yil I chorak

### Islomiy moliyalashtirish xizmatlari hajmi

2026-yilning I choragida mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari hajmi **11,2 mlrd so'mni** tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan (**1,4 mlrd so'm**) qariyb **8 barobarga oshdi**.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari tarkibida "**Murobaha**" asosiy ulushni egallab, jami hajmning **69 foizini** yoki **7,7 mlrd so'mni** tashkil etdi. Shuningdek, "**Muzoraba**" xizmatlari hajmi **2,1 mlrd so'mga** (19 foiz), "**Islomiy ijara**" xizmatlari esa **1,4 mlrd so'mga** (12 foiz) yetdi.

Xizmat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari ham yuqori bo'lib, "**Murobaha**" hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **20 barobarga**, "**Islomiy ijara**" esa **300 barobarga oshdi**.


### Tashkilotlar kesimida

2026-yilning I choragida islomiy moliyalashtirish xizmatlarining asosiy qismi **4 ta mikromoliya tashkiloti** hissasiga to'g'ri keldi.

Xususan:

- "Apex Moliya" MMT – 8,4 mlrd so'm;
- "Ayol" MMT – 2,1 mlrd so'm;
- "Enterprise Finance" MMT – 670 mln so'm;
- "Biznesni rivojlantirish" tashkiloti – 9 mln so'm.

Ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar tendensiyasi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

## Mijozlar va hududlar kesimida


2026-yilning yanvar–mart oylarida ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlarida **yuridik shaxslar ulushi 46 foizni** tashkil etib, ular tomonidan jami 5,2 mlrd so'mlik xizmatlardan foydalanildi.

**Jismoniy shaxslar** hissasiga 2,9 mlrd so'm (26 foiz), **yakka tartibdagi tadbirkorlar** hissasiga esa 3,1 mlrd so'm (28 foiz) to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida xizmatlarning asosiy qismi **Toshkent shahri** hissasiga to'g'ri kelib, bu yerda jami **10,6 mlrd so'mlik** islomiy moliyalashtirish xizmatlari ko'rsatildi. Bu jami hajmning **94 foizini** tashkil etdi.

**Namangan viloyatida** esa 670 mln so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, uning ulushi **6 foizni** tashkil etdi.

Toshkent shahri



Namangan viloyati



■ Murobaha

■ Muzoraba

■ Mushoraka

■ Islomiy ijara

2026-yilning I choragida mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari hajmi sezilarli darajada oshdi. Bozorda yangi mahsulotlarning joriy etilishi va xizmatlar ko'lamining kengayishi natijasida islomiy moliyalashtirish segmenti faol rivojlanishda davom etmoqda. Hozircha asosiy ulush "Murobaha" xizmatlariga to'g'ri kelayotgan bo'lsa-da, "Muzoraba" va "Islomiy ijara" xizmatlari hajmining o'sishi mahsulotlar diversifikatsiyasi kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda.